

## 40. Yig'indini songa bo'lish



Yondosh mavzu:  
o'qituvchi.

Yig'indi, qo'shiluvchi,  
to'liq bo'linish.

1. O'qituvchi zanjir bo'yicha amallarni bajarishni buyurgan edi, Akmalda 16 chiqdi. Akmal amallarni to'g'ri bajardimi?

$$36 : 4 \cdot 6 - 12 : 7 + 14 : 10 \cdot 9$$

2. O'qituvchi sinfdagi uchta qatorga misollar yozilgan rangli varaqachalarni teng tarqatdi. Hammasi bo'lib 12 ta ko'k, 18 ta sariq, 6 ta yashil varaqacha bor edi. Har bir qatordagi o'quvchilar nechtadan varaqacha olgan?

Aziza masalani bunday  
yechibdi:

$$(12 + 18 + 6) : 3.$$



Madina esa bunday yechibdi:

$$12 : 3 + 18 : 3 + 6 : 3.$$



Kim to'g'ri yechgan?



Yig'indini biror songa bo'lish uchun har bir qo'shiluvchini shu songa bo'lib, bo'linmalarni qo'shish mumkin.  
Tekshirib ko'ring:

$$(30 + 18) : 6 = 30 : 6 + 18 : 6 = 5 + 3 = 8$$

$$(30 + 18) : 6 = 48 : 6 = 8$$

## 40. Yig'indini songa bo'lish



3. Misollarni ikki xil usul bilan yechib ko'ring. Har bir misolda qaysi usul osonroq ekan?

$$(30 + 40) : 10$$

$$(60 + 8) : 2$$

$$(28 + 56) : 7$$



4. Misollarni o'zingizga qulay usulda yeching. Nimani sezdingiz? Xulosa chiqaring. Bu yerda qaysi varaqacha ortiqcha ekan? Nima uchun?

O'qituvchi

$$(42 + 36) : 6$$

Pedagog

$$(54 + 18) : 9$$

Olim

$$(24 + 21) : 5$$

O'qituvchi

$$(30 + 12) : 6$$




5. Ifoda tuzing va uni qulay usulda hisoblang.

- Sinfda 14 ta qiz bola, 16 ta o'g'il bola bor. Ingliz tilini o'rganish uchun sinf ikkita teng guruhga bo'lindi. Har bir guruhda nechtadan o'quvchi bor?
- Maktabdagi tanlovda 12 ta katta sinf va 8 ta o'rta sinf qatnashadi. Saralash bosqichida har bir sinfdan 4 tadan jamoa qatnashdi. Nechta saralash o'yinlari o'ynalgan?



6. Madina, Aziza va Umidada har xil rangdagi qisqichlar bor. Har bir qizda har bir rangdan nechtadan qisqich borligini sanashga yordam bering.

Qizlar qisqichlarni teng bo'lib olishdi. Har bir qizga nechtadan qisqich to'g'ri kelgan?



## 40. Yig'indini songa bo'lish




7. O'qituvchi har kuni qancha vaqt ishlaydi? Uning ish me'yori kuniga 8 soat bo'lishi kerak. Uning ish vaqtini me'yordagi vaqt bilan solishtirib ko'ring.

Ish rejasি	
Dars o'tish	5 h
Daftар tekshirish	2 h 30 min
Qoloq o'quvchilar bilan ishlash	40 min
Darslarga tayyorlanish	2 h 20 min



8. Rasmda kvadrat shakldagi stol tasvirlangan. Mana shunday stollardan 9 tasini bir-biriga taqab, bir qator qilib qo'yishdi. Endi bu uzun stol atrofida necha kishi o'tirsa bo'ladi?



9. Qulay usulda hisoblang. Qiymatlarni kamayish tartibida qo'yib chiqing. Qadimgi Yunonistonda arifmetika o'qituvchisi qanday nomlanganini toping.

**R**  $(40 + 30) : 10$

**TO**  $(800 + 600) : 100$

**KA**  $(300 + 200) : 10$

**KU**  $(120 + 16) : 4$

**L**  $(120 + 21) : 3$

**LA**  $(40 + 24) : 2$



10. Kompleks masala.

a) Jadvalga qarab, məktəbdə jami nechta sinf borligini aniqlang.

Boshlang'ich sinflar (1–4 sinflar)	O'rta sinflar (5–9 sinflar)	Katta sinflar (10–11 sinflar)
24 ta sinf	16 ta sinf	8 ta sinf

b) Har bir sinfda 2 tadan ingliz tili guruhi bor. Məktəbdə jami nechta ingliz tili guruhi bor?

d) Bitta o'qituvchi 8 ta guruhga dars o'ta olsa, məktəbdə nechta ingliz tili o'qituvchisi ishlashi kerak?